

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZELOGIK BIRLIKLARNING PAYDO BO'LISHIDA METONIMIYANING O'RNI

Alibekov Doniyor Nurmatovich

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti

(mobile (+99899) 878-80-37; e-mail- a_doniyor@mail.ru)

Annotatsiya

Tilning ekspressiv vositalari, yoki uslubiy (stilistik) vositalar har qanday tilning o'ziga xos bezagi sanalib, ular tilning lug'at tarkibining rang-barang bo'lishi uchun xizmat qiladi. Bunday til vositalariga metafora, o'xshatish, sinekdoxa, litota, giperbola, jonlantirish singari turli uslubiy vositalar orasida alohida ahamiyat kasb etuvchi metonimiya ham kiradi. Mazkur vositalar asosan tilning semantik, strukturaviy hamda funktsional jihatlarini o'rganishni o'z oldiga asosiy vazifa sifatida qo'yadi. Shunday til vositalaridan bo'lgan metonimiya frazeologik birliklarni paydo bo'lishida alohida o'ringa ega. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida frazeologizmlarning paydo bo'lishida metonimik ko'chishning o'rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: til vositasi, frazeologik birlik (FB), frazeologizm, ma'no ko'chishi, metonimiya, uslubiy vosita, ob'ekt, paradigmatika, sintagmatika

Tilshunoslik tarixida frazeologik birlik (FB) tushunchasiga ko'plab ta'riflar berilgan. Mazkur til hodisasi lisoniy jihatdan uning tuzilishi, tarkibi, morfolik, sintaktik jihatlarini turli nuqtai nazardan batafsil o'rganilgan. Ko'plab tadqiqotlarda frazeologizmlar dunyo, tajriba va insoniyatning madaniy merosi haqidagi bilimlarni to'plash vositasi sifatida ham qaraladi. Frazeologik birliklarni (PB) o'rganish orqali odam o'zini o'zi va atrofidagi dunyo haqida ko'proq bilish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, F.B.larning atrofidagi olamni aks ettirish vositasi sifatidagi asosiy xususiyati quyidagicha: bu jarayon ikki bosqichli jarayonda sodir bo'ladi. Birinchisi, birlamchi nominatsiyadan, ya'ni so'zda hosil bo'lgan ketma-ket tovushlar to'plamining ma'lum bir ma'noga ega bo'lishidan iborat. Ikkinchisi, ikkinchi darajali nominatsiya jarayoni bo'lib, natijada lug'at paradigmasida har biri o'ziga xos ma'noga ega bo'lgan bir nechta so'zlardan tashkil topgan birikma berilgan so'zlarning biror birining ma'nosiga o'xshash bo'lmagan yangi umumiy ma'noga ega bo'ladi - frazeologizmning tarkibiy qismlari.

Biror tushunchaning paradigmatic o'zgarishi orqali tilda namoyon bo'luvchi metaforadan farqli ravishda metonimiya ko'proq sintagmatik o'zgarish natijasida ruyobga chiqadi. Metonimiya ko'pincha biror-bir predmet nomining boshqa predmet nomi o'rniga ular orasidagi tashqi yoki ichki bog'lanish asosida qo'llanilishi sifatida ta'riflanadi.

Metonimiya frazeologik darajada uzual ma'no vazifasini bajarib, umumiy ob'ektivlik, jarayon, sifat va holat ma'nosi bilan frazeologik birliklarda namoyon bo'ladi. Metonimiya idrok etilayotgan ob'ektni boshqasiga munosabati orqali kontseptuallashtirishga imkon bergani bois nafaqat tilga, balki tafakkur, ish-harakat va munosabatga ham tegishlidir. Metonimik ko'chish proksimativ, ya'ni ob'ektni boshqa bir ob'ektga o'xshashlik asosida emas, balki ayrim konstitutsiyaviy belgilar orqali ifodalaydi. Bundan xulosa qilish mumkinki, metonimik o'zgarishga asoslangan frazeologik birliklar ko'pincha motivatsiyaga uchragan bo'ladi, chunki metonimiya ob'ekt uchun muhim xususiyatlarni ham qamrab oladi. Shuningdek, metonimiya yordamida yasalgan frazeologik birliklar to'liq yoki qisman ko'chma ma'noga ega bo'lishi mumkin.

Metonimiya yordamida paydo bo'lgan frazeologik birliklar ish-harakat ma'nosiga ega bo'lganda, real ish-harakat nomi uning natijasini bildirish uchun qo'llaniladi, masalan, ingliz tilidagi *to open someone's eyes to something* va uning o'zbek tilidagi ekvivalenti bo'lgan *kimningdir ko'zini ochmoq*. Bundan tashqari, emotsional holatni ifodalovchi frazeologik birliklarda metonimiya real ish-harakatni ifodalash uchun ishlatiladi, misol uchun ingliz tilidagi *to point the finger of scorn on somebody* va o'zbek tilidagi *kimdandir ko'nglida kek saqlamoq* iboralarini ko'rsatish mumkin. Metonimiya frazeologizmlarda inson ruxiy xolati yoki his-tuyg'ularni ifodalash uchun ham qo'llanilishi mumkin. Ingliz tilidagi *have an itchy foot, make the ears tingle* hamda o'zbek tildagi *ikki qo'lini burniga tiqmoq* kabi frazeologizmlarni misol sifatida ko'rsatish mumkin. Shu o'rinda, ingliz tilidagi *bend (someone's) ear (to talk to someone for a long time)* hamda o'zbek tilidagi *quloq-miya(si)ni yemoq* frazeologizmlarini tahlil qilar ekanmiz, bu yerda real ish-harakati, emotsional va ruxiy xolatini ayni bir fraxeologik birlikda mujassam etilganligiga guvoh bo'lish mumkin. I dread it every time that woman calls me on the telephone because *she bends my ear* about how her children don't appreciate her (STCA; 5). O'zlaring bilasizlar, tapirlab *quloq-miyani yeydigan* elektrostansiyamiz ellik-oltmishta lampochkani arang qizartiradi. (A.Qahhor. Sinchalak- O'TFL;422) Yo'qoridagi misollardan ko'rish mumkinki, metonimiya vositasida paydo bo'lgan frazeologik birliklar ma'lum assotsiatsiya yoki funksional o'xshashliklarga asoslanadi.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash lozimki, ingliz va o'zbek tillarida ko'chma ma'noga ega bo'lib tilning qay darajada boyligini o'zida mujassam etgan frazeologik birliklarning paydo bo'lishida eng produktiv uslubiy til vositalaridan bo'lgan metonimiya alohida ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar:

1. Долгова Е.В. Фразеологические единицы английского языка как модели репрезентация знаний о человеке. Тамбов, 2020/:

http://disser.tsutmb.ru/uploaddocuments/narassmotrenii/2020/Dolgova_dissertacia.pdf

2. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – М., 1996.
3. Опарина О.Е. Концептуальная метафора// Метафора в языке и тексте. М.: Наука, 1998.
4. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. Москва: Просвещение, 1987.
5. Федуленкова Т.Н. Английская фразеология: Курс лекций. Архангельск, 2000.
6. Sh. Rahmatullayev, va b.lar. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022
7. Naciscione, Anita. 2010. Stylistic Use of Phraseological Units in Discourse. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company:
<http://www.naciscione.com/bookpreview.html>
8. Shelley, V.L. Something to Crow about. - Washington, 1996